

O'ZBEKISTON KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI ESG TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

Jumayeva Guzal Sherxon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda korporativ boshqaruv samaradorligini ESG tamoyillari asosida baholashga doir xalqaro metodologiyalar tahlil qilinadi hamda ularning asosiy urg'ulari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda MSCI va Sustainalytics metodologiyalarining yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinib, rivojlangan mamlakatlarda ESG tamoyillarining korporativ boshqaruv amaliyotiga integratsiya qilinish jarayoni yoritiladi. Shuningdek, O'zbekistonda ESG tamoyillarini joriy etish bo'yicha shakllanayotgan huquqiy muhit va amaliy tendensiyalar tahlil qilinib, mahalliy korxonalar oldidagi ESG talablari rivojlangan mamlakatlar kompaniyalari bilan solishtiriladi.

Kalit so'zlar: ESG tamoyillari, korporativ boshqaruv, barqaror rivojlanish, ESG metodologiyasi.

So'nggi yillarda global moliya bozorlarida kompaniyalar faoliyatini baholashda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini o'z ichiga olgan ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari muhim mezonlardan biriga aylangan[1]. Xalqaro kapital bozorlarida institutsional investorlar investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida kompaniyalarning ESG ko'rsatkichlariga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda[2].

ESG tamoyillarini baholashda xalqaro reyting agentliklari tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalar kompaniyalar faoliyatining barqarorlik darajasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, MSCI metodologiyasi ESG omillarini kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligi va investitsion jozibadorligiga ta'sir qiluvchi strategik indikatorlar sifatida baholaydi[3]. Ushbu metodologiyada korporativ boshqaruv omillari kompaniya faoliyatidagi potentsial risklarni aniqlash va baholashda muhim rol o'ynaydi.

Sustainalytics metodologiyasi esa ESG omillarini kompaniya faoliyatidagi risklarni baholash nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Mazkur metodologiyada asosiy e'tibor kompaniya tomonidan boshqarilmayotgan ESG risklari darajasini aniqlashga qaratiladi[4]. Bunday yondashuv kompaniya faoliyatidagi ekologik va ijtimoiy omillar bilan bog'liq risklarning korporativ boshqaruv tizimi orqali qanchalik samarali boshqarilayotganini baholash imkonini beradi. Quyida ushbu metodologiyalarning asosiy yondashuvlari qiyosiy tarzda keltiriladi.

1-jadval

MSCI va Sustainalytics ESG metodologiyalarining asosiy yondashuvlari

Xususiyat	MSCI ESG Ratings	Sustainalytics ESG Risk Ratings
Nima o'lchanadi?	Kompaniyaning sanoatga oid ESG risklariga nisbatan chidamliligi (resilience).	Kompaniyaning "Boshqarilmaydigan risklari" (unmanaged risk) darajasi.
Baholash shkalasi	AAA dan CCC gacha (harf ko'rinishida).	0 dan 100 gacha (son ko'rinishida: 0 - eng kam risk).
Asosiy indikatorlar	35-37 ta asosiy ESG masalalari.	20+ ESG masalalari.

Governance (G) o'рни	"Governance" bloki barcha kompaniyalar uchun majburiy va uning ballari umumiy reytingdan chegirib tashlanadi (deduction).	Korporativ boshqaruv reytingning "poydevori" (Foundational building block) hisoblanadi.
Risk toifalari	Leader (AAA-AA), Average (A-BB), Laggard (B-CCC).	Negligible (0-10), Low (10-20), Medium (20-30), High (30-40), Severe (40+).

Manba: MSCI ESG Ratings Methodology[5], Sustainalytics ESG Risk Ratings Methodology[6].

Rivojlangan mamlakatlarda ESG tamoyillari korporativ boshqaruv amaliyotining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllangan. Xususan, institutsional investorlar kompaniyalarning ESG ko'rsatkichlarini investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida muhim mezon sifatida qo'llaydi. Natijada kompaniyalar ESG hisobotlarini taqdim etish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda korporativ boshqaruv shaffofligini oshirishga katta e'tibor qaratmoqda[7]. Bunday sharoitda ESG tamoyillari nafaqat tartibga solish instrumenti, balki kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi strategik omil sifatida qaraladi.

O'zbekistonda ESG tamoyillarini joriy etish tendensiyalari. O'zbekistonda ham ESG tamoyillarini joriy etish bo'yicha muayyan institutsional muhit shakllanmoqda. Xususan, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida [8] iqtisodiyotni "yashil" rivojlantirish, korporativ boshqaruv shaffofligini oshirish hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini iqtisodiy siyosatga integratsiya qilish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan⁸. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni [9] mamlakatda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning strategik asoslarini belgilab, iqtisodiyot tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, hamda issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish kabi ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi. Mazkur hujjat korxonalarini ekologik barqaror texnologiyalarni joriy etishga rag'batlantirish orqali ESGning ekologik komponentini amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-16-son [10] Farmoni doirasida yirik davlat aksiyadorlik jamiyatlari uchun ESG tamoyillariga mos ravishda barqaror rivojlanish va ESG hisobotlarini shakllantirish hamda e'lon qilish bo'yicha yangi talablar belgilandi. Ushbu farmon "yashil" moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish va korporativ boshqaruv shaffofligini oshirish orqali mahalliy korxonalarini xalqaro ESG standartlariga bosqichma-bosqich moslashtirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, mamlakat korxonalarining ESG tamoyillarini amaliyotga joriy etish darajasi rivojlangan mamlakatlar kompaniyalariga nisbatan hali shakllanish bosqichida ekanligini kuzatish mumkin. Xususan, ESG hisobotlari amaliyotining keng tarqalmaganligi, institutsional investorlar tomonidan ESG ko'rsatkichlariga asoslangan investitsiya talabining yetarli darajada shakllanmaganligi hamda mahalliy kompaniyalar uchun ESG baholash metodologiyasining mavjud emasligi ushbu jarayonning rivojlanishini sekinlashtirmoqda.

ESG tamoyillarini korporativ boshqaruv tizimiga integratsiya qilish rivojlangan mamlakatlarda kompaniyalar faoliyatining muhim standartlaridan biriga aylangan. MSCI va Sustainalytics metodologiyalarining asosiy yondashuvlari ESG omillarining kompaniyalar barqarorligi va risklarini baholashdagi muhim rolini ko'rsatadi. O'zbekistonda esa ESG tamoyillarini joriy etish jarayoni hali shakllanish bosqichida bo'lib, bu borada muayyan huquqiy muhit yaratilayotganini kuzatish mumkin. Shu bilan

birga, mahalliy korxonalar oldidagi ESG talablari rivojlangan mamlakatlar kompaniyalari talablari bilan solishtirilganda, ularning amaliy tayyorgarlik darajasi hali yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Friede G., Busch T., Bassen A. *ESG and Financial Performance // Journal of Sustainable Finance & Investment*, 2015.
2. United Nations. *Principles for Responsible Investment (PRI)*. New York, 2006.
3. Eccles R., Ioannou I., Serafeim G. *The Impact of Corporate Sustainability on Organizational Processes and Performance // Management Science*, 2014.
4. Grewal J., Serafeim G. *Research on Corporate Sustainability // Foundations and Trends in Accounting*, 2020.
5. MSCI. *ESG Ratings Methodology*. New York, 2023.
6. Sustainalytics. *ESG Risk Ratings Methodology*. Morningstar Sustainalytics, 2023.
7. OECD. *Corporate Governance and ESG Integration*. Paris, 2022.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. 2023.
9. PF-60-son Farmoni "2030 yilgacha yashil iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". 11.09.2023. <https://lex.uz/docs/6600411>
10. PF-16-son Farmoni "O'zbekiston-2030 strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida". 30.01.2025. <https://lex.uz/docs/7033820>

TURIZM SEKTORIDA INVESTITSIYA MUHITINI RIVOJLANTIRISHDA INSTITUTSIONAL INVESTORLARNING ROLI

Abdumurotov Shohruh Shavkat o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, PhD

Ismoilov Ozodbek Jo'rabekovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, talabasi

Annotatsiya. Mazkur tezis O'zbekiston turizm sohasining barqaror rivojlanishi hamda institutsional investorlarning investitsiya muhitini takomillashtirishdagi strategik rolini o'rganadi. Ish doirasida davlat siyosati orqali turizm infratuzilmasini rivojlantirish, hududlarning salohiyatini oshirish va xorijiy hamda mahalliy investitsiyalarni jalb etish jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, turizm yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish, madaniy meros obyektlarini saqlash va xususiy sektor bilan hamkorlikda rivojlantirish, raqamlashtirish orqali barqaror investitsiya muhiti yaratish masalalari yoritiladi. Mazkur jarayonda institutsional investorlarning roli turizm infratuzilmasini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va mamlakatning global turizm maydonidagi raqobatbardosh mavqeini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: institutsional investitsiyalar, investitsiya muhiti, turizm siyosati, madaniy merosni boshqarish, turizm diversifikatsiyasi.

O'zbekiston turizm sohasi so'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotining strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida izchil rivojlanmoqda. Boy tarixiy meros, tabiiy resurslar va madaniy salohiyat nafaqat ichki, balki xalqaro sayyohlarni jalb qilishda